

Date: 3rdDecember-2024

HAMID OLIMJON IJODINING MAVZU JIHATDAN RANG-BARANGLIGI

Irgasheva Marhabo Olimjonovna

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tarbiyachisi



Hamid Olimjon xalq og‘zaki ijodi zaminida voyaga yetdi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, xalq og‘zaki ijodining ta‘siri shoir she‘rlarining faqat vazniga, ohangigagina emas, balki ijodkorning qariyb barcha asarlarining ruhiga ham singib ketgan. Hamid Olimjon xalq og‘zaki ijodidan asarlariga syujetlar tanladi, jozibali obrazlar kashf qildi. Eng muhimi, xalq og‘zaki ijodi ta‘sirida u yaratgan obrazlar hayotning yangi jihatlari aks ettirishga yo‘naltirildi. Ularda zulm – zulmat, adolatsizlik qoralandi, erk va ozodlik g‘oyalari, uni qo‘lga kiritishda jonbozlik ko‘rsatgan xalq vakillari ulug‘landi. Shu yo‘l bilan Hamid Olimjon o‘z she‘r va dostonlari orqali yangi tuzumni mustahkamlashga bevosita xizmat qildi.

Vatan va vatanparvarlik ruhida yozilgan Hamid Olimjon asarlaridagi ta‘sirchanlik alohida kuch kasb etadi. Buning sababi bizningcha, avvalo, shoir she‘rlaridagi samimiyatda, jo‘shqinlikda, jozibada, ishonchda, xalq bilan, vatan bilan hamdardlikda! Shoir she‘rlarini o‘qib biz uning qalb nidosini tinglaymiz, ruhiy boyligidan bahramand bo‘lamiz. “O‘lka” she‘rida shoir “dunyoga kelgan kundanoq vatanim, deb uyg‘ongani, odam baxti birgina unda bo‘luriga mukammal qongani” haqida gapiradi:

Qulog‘imga noming kirganda,
Qumlik kabi tashna boqurman.
Sening jannat vodiylaringdan
Nahrlarday to‘lib oqurman...⁵

Ha, u hayotni Sir va Amu daryolaridek to‘lib-toshib kuyladi, hayotdan olgan cheksiz his va hayajonlarini, dard va alamlarini, fikr va faryodlarini kitobxonlarga to‘la yetkaza oldi.

Ilmiy adabiyotlarda, adabiy tanqidchilikda Hamid Olimjonni odatda go‘zallik kuychisi, baxt va shodlik, jo‘shqin yurak hislari kuychisi deb ataydilar. Shoir asrlar davomida zulm va zulmat bilan beli bukilgan oddiy mehnatkash xalqning bugungi, ertangi baxtini ko‘ra oldi, butun olamdagi yangilanish va baxt, shodlikni his qila oldi. “Bahor” she‘ridagi obrazlarga razm solaylik: Bahorning tinimi yo‘q “har nafas sep yozar, yechib o‘z tugunchagin”, Bahor “tongdagi kurtak, oqshomdagi g‘uncha, sahar borib ochar” chechagin. Bu obrazlar butun hayot ramzi – undagi doimiy yangilanish, yangilikning go‘zalligi, tug‘ilish tantanasi, undagi pokjlik, beg‘uborlik aks etadi. Shoir nazarda umuman hayot – jamiyat ham, tabiat ham o‘sha bahor qonuniyatlariga bo‘ysunadi – tug‘iladi, o‘sadi, unadi, kamol topadi...

Hamid Olimjon hayotni tor ma‘nodagi “go‘zallik” nuqtai nazaridan tushunadigan va shu tarzda yuzaki tasvirlaydigan shoir emas edi. U yaratgan quvnoq va serjilo misralar

⁵ Хамид Олимжон. Хамид Олимжон Ўрик гуллаганда. Шеърлар ва драма. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990, 122 – бет.

Date: 3rd December-2024

zamirida doim o'tmish davriga nafrat hislari yotgan. Hamid Olimjon "Shodlikni kuylaganimning sababi" she'rida bu holni izohlaydi, tarixga nazar tashlab ko'radi. O'tmishda o'ziga o'xshagan shoirlar go'zallik izladilar, biroq buning o'rniga g'am – g'ussani, azob – uqubatni ko'rdilar. Fuzuliy "Majnun bo'lib yig'lab qichqirgandek", Navoiy "Faryod bilan o'rnidan turgandek, Xayyom esa "Qayg'u bilan to'liqdir ayyom", deb takror-takror aytayotgandek edi unga. Shular natijasi o'laroq u xitob qiladi:

*O'yladimu uzoq qoldim jim,
So'ngra savol qildim o'zimdand.
Daryo kabi toshib sevinchim,
Yosh tirqirab keldi ko'zimdand.
Shodlik yo'lga boshladi meni,
Baxtiyorlik bo'ldi odatim,
Shoir bo'lib shodlik va baxtni
Kuylamoqlik zo'r saodatim⁶.*

O'tmishning jafoli kunlariga munosabat, zulm-zulmat sirlarini zamondoshlariga yetkazish, ularning ko'zini ochish shoir estetik tamoyillarining bosh belgilaridan edi.

Shoir Hamid Olimjon ijodiga xos alohida ta'kidlanishi kerak bo'lgan boshqa bir muhim xislat bor. Bu shoir she'riyati tuzilishiga xos so'z va obrazlar uyg'unligi, ohangdagi ravonlikdir. Hamid Olimjonning ko'p asarlarini masnaviyda yozganligi bu fikrlarimizni isbotlaydi. Masnaviyda asar yozish asarga joziba baxsh etgandek bo'ladi, qofiyalar quyulib kelaveradi, asarda xalqona ruh old planga chiqib boradi. Balki buni musiqiylik deb atasak ham bo'lar, mening nazarimda. Ammo musiqiylikning o'zi ham emas. Bu haqiqiy so'z san'atiga xos bo'lgan mantiqiy izchillik bo'lsa kerak. Shoir asarlarining jozibasini mana shu mantiqiy izchillikka va musiqiylikka bog'liqligidadir. Shunday she'rlar borki, ularda ma'no ham bordek, qofiya ham yomon emasdek, she'riyatning shakliy qonuniyatlariga xos mezon ham o'rniga qo'yilgandek.

Ayniqsa, o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, g'azal mulkingning sultoni buyuk Alisher Navoiy asarlarini tadqiq va targ'ib etishda Hamid Olimjon oldingilardan bo'ldi. Alisher Navoiyning 500 yillik to'yiga tayyorgarlik va uni o'tkazish ishiga ham shoir O'zbekiston Yozuvchilari ittifoqining raisi sifatida, Navoiy yubiley Qo'mitasining a'zosi sifatida ko'pgina tashkiliy va ilmiy ishlarni amalga oshirdi. Navoiy yubileyini o'tkazish, buyuk shoir merosini to'g'ri o'rganib, undan ilg'or tomonlarini xalqqa yetkazish uchun Hamid Olimjon navoiyshunos olimlar, yozuvchilarni bu ishga keng jalb etib, ulug' shoirning o'lmas asarlarini nashr ettirish, u haqda chuqur tadqiqotlar yaratish, Navoiy obrazini gavdalantiruvchi badiiy asarlar yaratishni uyushtirish, shart – sharoit hozirlash bilan birga o'zi ham alloma haqida qator maqolalar yozdi. "Navoiy o'zbek adabiy tilining yaratuvchisi", "Farhod va shirin" haqida", "Navoiy va zamonamiz" maqolalari shu ezgu maqsad yo'lida yozilgan. Bu ilmiy maqolalarda Hamid Olimjon haqiqiy tadqiqotchi sifatida shoir adabiy merosining ilg'or tomonlarini ochib bergan.

⁶ Ҳамид Олимжон. Ҳамид Олимжон Ўрик гуллаганда. Шеърлар ва драма. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990, 122 – бет.



Date: 3rdDecember-2024

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ҳамид Олимжон. Ҳамид Олимжон Ўрик гуллаганда. Шеърлар ва драма. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990,
2. Назаров Б. XX аср ўзбек адабиётида Ҳамид Олимжон ижодининг ўрни. Ҳамид Олимжон таваллудининг 100 йиллигига бағишланган республика илмий – амалий конференция материаллари. Қарши, 2009.

